




XORAZM VILOYATIDA DEMOGRAFIK HOLAT (dastlabki ma'lumot)

Doimiy aholi soni. Xorazm viloyati doimiy aholisi soni 2022- yil 1- aprel holatiga 1 930,8 ming kishini tashkil etib, 2022- yil boshidan 6,6 ming kishiga yoki 0,3% ga o'sdi. Jumladan, shahar aholisi soni 638,3 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 33,1 %), qishloq aholisi soni 1 292,5 ming kishini (66,9 %) tashkil etdi.




Doimiy aholi sonini hisoblanishi hisobot yili boshidagi aholi soniga hisobot davridagi tug'ilganlar va ko'chib kelganlar sonini qo'shib, o'lganlar va ko'chib ketganlar sonini ayirib tashlash natijasida hosil bo'ladi.




Doimiy aholi sonining taqsimlanishi

(2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra)






Shahar va tumanlar kesimida aholi soni (yanvar- mart, ming kishi)



Shahar va tumanlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2022- yil 1- aprel holatiga, viloyat jami aholisiga nisbatan, %)




**Shahar va tumanlar kesimida doimiy aholi soni
(1-aprel holatiga, ming kishi)**

	2021- y.	2022- y.	O‘tgan yilga nisbatan o’sish sur’ati, %
Xorazm viloyati	1 898,8	1 930,8	101,7
Urganch sh.	145,3	147,3	101,4
Xiva sh.	94,0	95,6	101,7
<i>tumanlar:</i>			
Bog’ot	167,1	170,0	101,7
Gurlan	149,9	152,6	101,8
Qo’shko’pir	174,1	176,6	101,4
Urganch	202,2	206,4	102,1
Hazorasp	196,4	199,3	101,5
Tuproqqał'a	55,6	56,8	102,2
Xonqa	188,8	192,3	101,9
Xiva	147,5	150,1	101,8
Shovot	172,1	174,8	101,6
Yangiariq	117,5	119,3	101,5
Yangibozor	88,3	89,7	101,6

Viloyat kesimidagi tahlillarga ko‘ra, 2022- yil 1- aprel holatiga eng ko‘p aholi soni Urganch tumanida qayd etilib, viloyat aholisi sonidagi ulushi 10,7 % ni tashkil etgan, keyingi o‘rinlarda Hazorasp tumanida 10,3 %, Xonqa tumanida 10,0 % va Qo’shko’pir tumanida 9,1 % ni tashkil etgan.


Tug'ilganlar soni

(yanvar-mart holatiga, ming kishi)



Tug'ilganlar koeffitsiyenti


(yanvar-mart holatiga, promille)




Ma'lumot uchun: tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urish, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyor qisqarishi) biri mavjud bo'lsa bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yи 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.



Tuzilgan nikohlar soni (yanvar- mart holatiga, ming kishi)




Tuzilgan nikohlar koeffitsiyenti (yanvar- mart holatiga, promille)




2022- yil yanvar-mart oylarida **5 248** ta nikoh qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh koeffitsiyenti **11,0** promilleni tashkil etdi hamda 2021- yilga nisbatan **1,0** promillega oshganligi kuzatildi (**2021- yilda 10,0 promilleni tashkil etgan**).



Nikohdan ajrashganlar soni (yanvar- mart holatiga, ming kishi)




Nikohdan ajrashganlar koeffitsiyenti (yanvar-mart holatiga, promille)




2022- yil yanvar-mart oylarida **494** ta nikohdan ajrashganlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan ajralish koeffitsiyenti **1,0** promilleni tashkil etdi hamda 2021- yilga nisbatan **0,2** promillega oshganligi kuzatildi (2021- yilda **0,8** promilleni tashkil etgan).

O'lim koeffitsiyentlari to'g'risida ma'lumot (2022- yil yanvar-mart, promille)





Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 147 nafar kishini tashkil etib, ularning 51,0 % - perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 16,3 % - nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 19,1 % - tug'ma anomaliyalardan, 6,8 % - yuqumli va parazitar kasalliklardan va 6,8 % - boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (2022- yil yanvar-mart holatiga, jami vafot etganlarga nisbatan, % da)






Ko'chib kelganlar soni (yanvar- mart holatiga, ming kishi)




Ko'chib kelganlar koeffitsiyenti (yanvar- mart holatiga, promille)




2022- yil yanvar- mart oylarida **1918** ta ko'chib kelganlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan ko'chib kelganlar koeffitsiyenti **4,0** promilleni tashkil etdi hamda 2021- yilga nisbatan **5,6** promillega kamaygan kuzatildi (**2021- yilda 9,6 promilleni tashkil etgan**).



Ko'chib ketganlar soni (yanvar- mart holatiga, ming kishi)



Ko'chib ketganlar koeffitsiyenti (yanvar- mart holatiga, promille)



2022- yil yanvar- mart oylarida **2105** ta ko'chib ketganlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan ko'chib ketganlar koeffitsiyenti **4,4** promilleni tashkil etdi hamda 2021- yilga nisbatan **6,6** promillega kamayganligi kuzatildi (2021- yilda **11,0** promilleni tashkil etgan).



Aholi migratsiyasi

ming kishi

	2021- yil yanvar- mart	2022- yil yanvar- mart
Ko'chib kelganlar	4,5	1,9
Ko'chib ketganlar	5,1	2,1
Migratsiya saldosi	-0,6	-0,2

Migratsiya saldosining yuqori darajasi Hazorasp (minus 176 kishi), Shovot (minus 59 kishi), Xonqa (minus 47 kishi), Qo'shko'pir (minus 43 kishi) tumanlarida qayd etildi.

Migratsiya saldosining ijobiy darajasi Urganch tumanida (plus 111 kishi), Tuproqqa'l'a tumanida (plus 78 kishi), Yangiariq (plus 28 kishi) kuzatildi.



Xorazm viloyati statistika boshqarmasi

Demografiya va mehnat

statistikasi bo'limi

tel : (62)2246508